

TANLOVGA MARHAMAT!

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-sentyabr kundagi tegishli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Farg'ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi tasarrufidagi Qo'qon shahar IIB vaqtincha saqlash xibsxonasi (VSH), Farg'ona viloyati IIB JXX XPB voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish markazi, O'zbekiston tuman IIB VSH, Reabilitatsiya qilish markazi, Maxsus qabulxona, viloyat IIB vaqtincha saqlash xibsxonasi, Farg'ona Akademik litseyi va IIB tasarrufidagi "Yulduzcha" maktabgacha ta'lif muassasalarida – shaxsiy tarkibning ovqatlanishini autsorsing tizimida tashkil etish bo'yicha talabgorlarni o'rganish hamda eng yaxshi takliflarni tanlash orqali mazkur muassasalarga biriktirish bo'yicha tanlov o'tkaziladi.

Bunda umumiy ovqatlanish sohasida katta ish tajribasiga ega, tegishli moliyaviy, moddiy-texnika va logistika bazasiga ega, oshxonalarning holatini yaxshilashga tayyor bo'lgan talabgorlarga ustunlik beriladi.

Shuningdek, talabgorlarga nisbatan quyidagi talablar qo'yiladi:

- yuridik shaxs bo'lishi;
- autsorsing xizmati bo'yicha kamida bir oylik shartnoma summasiga teng aylanma mablag'larga ega bo'lishi;
- moliyaviy ahvolining barqarorligi, soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi mavjud emasligi;
- statsionar va dala sharoitida autsorsing xizmati ko'rsatish uchun yetarli moddiy-texnika va logistika bazasiga ega bo'lishi;
- shtatida yetarli ish tajribasiga va ko'nikmaga ega xodimlar bo'lishi talab etiladi.

Shu munosabat bilan, tanlovda ishtirok etish hohishini bildirgan tadbirkorlik subyektlari quyidagi hujjatlarni 2022-yilning 5-oktyabr kuni soat 18:00ga qadar viloyat hokimligiga (tel: 73 244-40-40) taqdim etishlari so'raladi.

1. Tanlovda ishtirok etish uchun ariza
2. Tadbirkorlik subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'isidagi guvohnoma
3. Tadbirkorlik subyektining nizomi (ustavi)
4. Umumiy ovqatlanish yo'nalishidagi faoliyati (faoliyat boshlagan yili va oyi ko'rsatilishi shart) to'g'risida ma'lumot
5. Ovqatlantirish bilan faoliyat olib borayotgan qo'shimcha oshxonalarining mavjudligi to'g'risida ma'lumot (ovqatlantirish bo'yicha autsorsing faoliyatini olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari xizmat ko'rsatayotgan harbiy qism, bo'linma yoki muassasadan faoliyati to'g'risidagi tavsifnomani taqdim etadi)
6. Hisob raqamidagi mablag' hamda soliq va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida xizmat ko'rsatuvchi bankdan ma'lumot
7. Shtatidagi yetarli ish tajribasi va ko'nikmaga ega xodimlar soni to'g'risida ma'lumot
8. Statsionar va dala sharoitida autsorsing xizmati ko'rsatish uchun yetarli moddiy-texnika va logistika bazasi borligi to'g'risida ma'lumot.

IZOH: Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni o'rganish natijalari bo'yicha tanlov g'olibani aniqlanadi.

2022-10-03 20:53:35